



UDK:331314/316.316.6

Nigora M. KUTLIMURODOVA,

PhD, dotsenti v.b., Urganch davlat pedagogika instituti, Urganch, O'zbekiston

E-mail: nigora_m@gmail.com

PhD, dotsent B.Abdrimov taqrizi asosida

SCIENTIFIC AND THEORETICAL ANALYSIS OF APPROACHES TO MATERNAL AND CHILD HEALTH PROTECTION

Annotation

This article provides a scientific and theoretical analysis of the priority directions and approaches of the state social policy aimed at protecting maternal and child health, as well as safeguarding motherhood and childhood in our country.

Key words: Maternal and child health, healthy generation, family stability, Family and Marriage Counseling Centers, maternal and child screening centers.

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПОДХОДОВ К ОХРАНЕ ЗДОРОВЬЯ МАТЕРИ И РЕБЁНКА

Аннотация

В данной статье проводится научно-теоретический анализ приоритетных направлений и подходов государственной социальной политики, направленной на охрану здоровья матери и ребёнка, а также на защиту материнства и детства в нашей стране.

Ключевые слова: Здоровье матери и ребёнка, здоровое поколение, стабильность семьи, кабинеты консультирования по вопросам семьи и брака, скрининговые центры матери и ребёнка.

ONA VA BOLA SALOMATLIGINI MUHOFAZALASHGA DOIR YONDASHUVLARNING ILMIY-NAZARIY TAHLILI

Annotatsiya

Ushbu maqolada mamlakatimizda ona va bola salomatligini muhofazalashga, hamda onalik va bolalikni muhofaza qilishga doir davlat ijtimoiy siyosatining ustuvor yo'nalishlari va yondashuvlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: Ona va bola salomatligi, sog'lom avlod, oila barqarorligi, Oila va nikoh maslahat xonalari, ona va bola skrining markazlari.

Kirish. Hozirgi zamonda aholi nufuzini ortishi jiddiy muammolarni tug'dirmoqda. Garchi, 2023-yilga kelib jahonda tug'ilish jarayoni kamaya boshlagan bo'lsa-da, oilalar soni ortishda davom etmoqda. Ma'lumki barcha mamlakatlarda oilalarni sog'lom voyaga yetkazish, nikoh, tug'ilish darajasi muntazam o'rganib boriladi. Shu boisdan ham ona va bola salomatligining ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqish dolzarb masala bo'lib, sog'lom avlodni tarbiyalash nafaqat davlat, balki jamiyatning ham ustuvor vazifalaridan sanaladi. Shuningdek O'zbekiston Respublikasida onalik va bolalikni muhofaza qilishda davlat ijtimoiy siyosatining ustuvor yo'nalishlari tahlili va tavsifiga asosiy e'tibor qaratilgan. Dissertatsiyada ijtimoiy sohada yuz berayotgan o'zgarishlar va islohotlarning aholi turmush tarziga, xususan onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilishga ta'siri tizimli tadqiq etilgan [1].

Ayniqsa yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning oila xususidagi quyidagi fikrlari juda ibratlidir: "Eng katta baxt, men buni ming marta qaytarishdan charchamayman, oilamiz tinch bo'lsin! Oila kichik vatan, oila tinch bo'lsa, baxtli bo'lsa, vatan tinch bo'ladi. O'sha baxtli kunlarni, vatanimizning, yoshlarimizning kamolini hozir niyat qilayotganimiz kabi ko'rish hammamizga nasib etsin!" [2].

XX asrga kelib yer yuzi aholisi soni www.worldometers.info portalining ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yil 15-avgust kuni 8 mlrddan oshdi. Dunyo aholisi 2025 yilda 2024-yilga nisbatan taxminan 0,91% ga o'sishi bashorat qilingan. (2023 yildagi 0,88% ga, 2020 yildagi 0,98% ga va 2019 yildagi 1,06% ga nisbatan). Aholining hozirgi o'sish nufuzi yiliga taxminan 73 million kishini tashkil etadi. Garchi

dunyo aholisining yillik o'sish sur'ati 1960 yillarning oxirida 2% atrofida bo'lganida eng yuqori cho'qqiga chiqqan edi. Shundan beri o'sish sur'ati deyarli ikki baravar kamaydi va kelgusi yillarda pasayishda davom etadi [3]. Shunday qilib, dunyo aholisi 21 asrda o'sishda davom etadi, keyingi 40 yil ichida u 50 foizga o'sib, 2037-yilga kelib 9 milliardga yetadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilning 1-yanvar holatiga O'zbekiston Respublikasida 10 244 241 ta oilalar ya'ni, salkam 9,5 millionga yaqin oilalarda farzandlar tarbiyalanmoqda. 2026 yil 1 yanvar holatiga O'zbekistonning doimiy aholisi 38 236 704 kishini tashkil etgan. Bu 2025 yilga nisbatan 693,5 ming kishiga yoki 1,8 % ga ko'pdir [4].

Shu o'rinda ta'kidlash joizki dunyoning 176 mamlakatida onalik va bolalikni muhofaza qilishga qaratilgan o'ziga xos yondashuvlar, shakl va uslublar mavjuddir. Mamlakatimizda ham bu masalada katta islohotlarni ko'zda tutuvchi dasturlarni amalga oshirmoqda. Jumladan, O'zbekistonda ona va bola salomatligini institutsional himoyalash maqsadida 1998-yilda "Oila" ilmiy amaliy markazi tashkil etilgan. Shu tariqa oilani nafaqat amaliy balki nazariy tadqiq etishni ko'zda tutuvchi yondashuv yo'lga qo'yildi. Ona va bolalar salomatligini saqlash bo'yicha yosh bolali onalarga ijtimoiy qo'llov tizimi joriy etildi [5]. Onalarni kasbiy va ijtimoiy faolligini uzluksiz davom ettirish imkoniyatlarini berish bo'yicha katta reja va maqsadlar amalga oshirilmoqda. Har bir ona va bolaga individual yondashish, farzandlarning barkamol shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlash ustuvor siyosat obyektiga aylandi. Ona va bola salomatligi masalasi 2 asosiy

tarkibiy bo'linma faoliyati samaradorligi bilan bevosita bog'liqdir. Bo'lar, sog'lom bolani dunyoga keltirish hamda uning sog'lom holda voyaga yetkazishni o'z tarkibiga oladi. Mustaqillikka erishilgandan buyon o'tgan davr mobaynida odamlarni rozi qilish, inson qadrini oshirish xususan, onalar va bolalarni muhofaza qilish bo'yicha unikal tizim shakllantirildi[6].

Demak, onalik va bolalikni muhofaza qilish, ularni sog'ligini saqlash vazifalari azal azaldan eng asosiy dolzarb masalalardan hisoblanadi. Shu o'rinda tarixga nazar solgan holda g'arb va sharq olimlarining mazkur masala bo'yicha qarashlariga to'xtalib o'tsak.

Onalar va bolalarni muhofazasi va ularga g'amxo'rlik qilish bo'yicha turli fan namoyondalari tomonidan tadqiqotlar amalga oshirilgan. Abu Nasr Farobiy o'z asarlarida nikohni huquqiy va ma'naviy qadriyat sifatida baholaydi. Fozil shaharni barpo qilish shartlaridan eng muhimi farzandlar tarbiyasiga jiddiy e'tibor qaratish bilan bog'liq deb ta'kidlaydi. Buning uchun jamiyatga sog'lom fikrlaydigan onalar zarur. Darhaqiqat onalarning jismoniy va ma'naviy sog'lomligi pirovard natijada oilaning tinchligi ijtimoiy, iqtisodiy holati hamda jamiyatdagi mavjud shart sharoitlarga yangicha qarashni tatbiq toptiradi bog'liqligini tushuntiradi[7].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Abu Rayhon Beruniy o'zining "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida bu masalaga millatning bugun va ertasi sifatida o'z e'tiborini qaratgan bo'lsa, Ibn Sino axloqqa oid asarida komil inson tarbiyasining negizi sifatida yondashadi. Ular aynan ona va bola sog'ligi masalasiga alohida e'tibor qaratmagan bo'lsa-da, oila mustahkamligi, ta'lim tarbiya masalasiga e'tibor qaratishlari ularning ushbu masalaga uzviy aloqador ekanligini bildiradi.

Amir Temur bilan hamsuhbat bo'lgan buyuk olim Ibn Xaldunning fikricha, kishilar farovonligining o'sishi davlatdagi siyosiy vaziyatga ham bevosita bog'liq bo'ladi. Insoniyat sivilizatsiyasining rivojlanishi umran badaviy (qishloq hayoti)dan jamiyat rivojining oxirgi va yuqori shakli umran xadariy (shahar hayoti) sari o'sib takomillashib boradi. "Umran" atamasi orqali Ibn Xaldun bir qator ijtimoiy, iqtisodiy va demografik tushunchalar majmuini tushuniladi. Darhaqiqat davlat va fuqarolar farovonligiga aholi demografiyasi soni sezilarli ta'sir ko'rsatadi[8].

Davlatda aholining ko'payishi mehnat mahsulotlariga bo'lgan talabning ortishiga olib keladi. U yoki bu shaharda qancha ko'p odam yashasa, aholi jon boshiga shunchalik ko'p miqdorda moddiy noz-ne'matlar to'g'ri keladi. O'z navbatida farovonlikning oshishi aholi sonining ortishiga ham zamin yaratadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki Ibn Xaldunning bu fikrlari sharq xalqlarining mentaliteti bilan bog'liq bo'lib uni G'arb xalqlariga doim ham tatbiq etib bo'lmaydi. So'nggi bir necha o'n yillikda G'arbda ushbu tendensiyaning aksi kuzatilmoqda: davlatmand oilalar ko'p farzandli bo'lishga shoshilmaydilar. Ayniqsa, kambag'allik esa ko'p-bolali oilalarning ko'payishini to'xtatib qolmayapti. Demak, Ibn Xaldun ham bevosita oilalar va uni tashkil etuvchi onalik va bolalik masalasiga o'z e'tiborini qaratgan[9].

El yurt va oddiy fuqaro tashvishi, raiyatparvarlik, mehr-muruvvat, mamlakat ichkarisi va tashqarisida tinchlik va osoyishtalikni saqlash, yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini o'rnatish Amir Temur boshqaruvida markaziy o'rinlarni ishg'ol qilgan. Mazkur fikrlarning yaqqol dalili sifatida Amir Temurning o'z oilasiga, farzandlari, qarindosh-urug'lari, do'stlariga munosabatidan ko'plab misollar keltirish mumkin. Amir Temur, ayniqsa, nasl-nasab tozaligi, avlodlar davomiyligi, farzandlarni ahli solih etib tarbiyalash masalalariga alohida e'tibor qaratadi. Jumladan, nasihatlaridan birida din tartib asosiga qurilmagan davlatning shukhi, qudrati

va tartibi yo'qolishi, bunday davlat bamisoli yalang'och odamga o'xshashi haqida so'zlab, bu kabi boshboshdoqsiz mamlakatni "kasu nokas tap tortmay kirib chiqadigan tomsiz, eshigi to'sig'i yo'q uyga" o'xshatadi[10].

Sog'lom oilaviy muhit haqida ibratli umumlasmalar va tadqiqotlar yaratishda jadid ma'rifatparvarlarining xizmatlarini alohida aytib o'tishga to'g'ri keladi. Jadidchilik namoyandalari inson va mamlakat taqdiri, ularning kelajakda yutuq va yoki baxtsizligi, yuksalishi yoki tanazzuli oilaviy muhit bilan uzviy bog'liqligini chuqur his etdilar hamda oilaning jamiyatda tutgan mavqeyi, oila tarbiyasi va ma'naviyati xususida ilmiy tadqiqotlar yaratishga kirishdilar, badiiy asarlarida bu dolzarb masalaga alohida e'tibor qaratdilar.

Jadidchilik namoyandalari Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy va boshqalar tomonidan e'lon qilingan bir qator maqolalarda jamiyatning ma'naviy qiyofasi oilalarning qandayligiga bog'liqligi atroflicha tahlil etildi. Ma'rifatchilar shundan kelib chiqib, jamiyat taqdiri oilalar muhitiga bog'liq bo'lsa, oila ma'naviyatining o'zi kimga yoki nimaga bog'liq, degan haqli savolni o'rta qo'ydilar. Ularning fikricha, agar oilada sog'lom turmush tarzi ustuvor bo'lib, farzand har jihatdan to'g'ri tarbiya topgan bo'lsa, u shubhasiz o'zidagi ijobiy fazilatlarini, ijtimoiy mehnat faoliyatida qo'llaydi, natijada jamiyatdagi barcha munosabatlarga ijobiy ta'sir o'tkazadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda ona va bola salomatligini muhofaza qilishga doir ilmiy adabiyotlar, tarixiy manbalar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda statistik ma'lumotlar tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida tarixiylik, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Shuningdek, Sharq va G'arb mutafakkirlarining oila, onalik va bolalik masalalariga oid qarashlari o'rganilib, ularning zamonaviy ijtimoiy siyosatdagi ahamiyati tahlil etildi.

Xususan, A. Azimiyning "Ta'lim va tarbiya" deb nomlangan maqolasida: "... bolaga ona birinchi omil va murabbiydir. Onani ta'siri bolaga, otani ta'siridan ziyodadur. Chunki, ona bolani bir necha oylar qani birla g'izolandurur va bahdaz tavallud sanalarcha suti birla parvarish etar. Va muddatlarcha og'ushi mushfiqonasiga tarbiya etar. Bu sababli bola ona tarbiyasida bo'lg'usi ovonlarda muhitiga muvofiq holda tabiatlanur, ki bul tabiat va odat agar nomahqul holda bo'lunsa katta bo'lganidan so'ng islohi mushkuldur" deb ta'kidlaydi. Bir so'z bilan aytganda jadidchi ma'rifatchilar yangi davr va yangi tuzum uchun kurashni, eng avvalo, oilani isloh qilishdan boshlamoq zarur, deb hisobladilar. Ularning fikricha, oila asosini to'g'ri qurmay turib va yosh avlodni to'laonli to'g'ri yo'lda tarbiyalamasdan turib, jamiyatni isloh qilish, uning rivojini taraqqiyot sari yo'naltirish mumkin emas va oxir oqibatda millat taqdiri uning oilasining holatiga bog'liq[11].

Tahlil va natijalar. XX asr boshlaridan tortib to 1934 yilgacha yashab, keng ko'lamli faoliyat olib borgan jadid ma'rifatparvarlaridan Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq", Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" va Abdurauf Fitratning "Oila va oila boshqarish tartiblari" asarlarida oila, farzand tarbiyasi, sog'lom avlodni tarbiyalash, jism, fikr, aql tarbiyasiga o'z e'tiborlarini qaratganlar. Shu bilan birga farzand tarbiyasida onalarni tayyorlash bu yo'lda va yangi usul maktablarini ahamiyatini ochib berganlar. Shu bilan birga taraqqiyotga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan ijtimoiy ma'rifiy muammolar va uni bartaraf etish yo'llari nazariy asoslangan[12].

Oila masalasi nafaqat sharq, balki g'arb olimlarini ham jiddiy tadqiqotlar olib borishgan. Xususan, nemis faylasufi I.Fixte va I.Kantning oila va nikohga bo'lgan qarashlari katta qiziqish uyg'otadi. Ular oila va nikoh muammolarini tabiiy, huquqiy jihatdan ayol va erkaklar tengsizligidan kelib chiqqan

holda tahlil qilishgan. Ularning fikricha, nikoh – bu ma'naviy huquqiy institut bo'lib, jinsiy ishtiyoq kamdan kam uchrashishi bilan qadrlil bo'lib, qonunlar orqali tartibga solinishi lozim. Shu bilan birga oilani mustahkamlashda farzandlar tug'ilishi va ularni sog'ligi asosiy tamoyil ekanligiga urg'u bergan. Onalarni sog'ligi er-xotin o'rtasidagi munosabatlar mustahkamligining asosiy masalalaridan ekanligini ta'kidlaydilar.

XX asrning II yarmidan boshlab oila muammosi oila va nikoh barqarorligining global tarzda buzilishi davri sifatida tarixga kirdi va dolzarb va muhim masalaga aylandi. Nikoh barqarorligining buzilishi jamiyatda o'z aksini topib, oila va nikohni tadqiq qilishga ijtimoiy talab ortdi. Avvaliga AQShda, keyin Angliya, Avstriya, Kanada, Finlyandiya, Fransiya va boshqa Yevropa davlatlarida kechroq esa sobiq SSSR va Sharqiy Yevropa davlatlarida tadqiqot markazlarining soni ortib bordi. Bunda oilaning asosiy muammolaridan biri bo'lgan ona va bola sog'ligi masalalariga ham alohida e'tibor qaratildi. Bunda onalar va bolalar o'limini oldini olish, ularni sog'ligini tiklashda profilaktika ishlariga e'tibor ortib bordi [13].

Onalar va bolalar salomatligini ijtimoiy jihatdan o'rganish ya'ni, tarixiy tadqiqot davrini boshlab berdi. Dinlarning oila muammolarini yechishdagi ishtiroki ham muayyan tasvirga ega bo'la boshladi. Jumladan, biz e'tiqod qiladigan muqaddas islom dinining asosiy ko'rsatmalari oila mustahkamligi, uning ta'minoti, ayollarni qo'llab quvvatlash, farzandlar salomatligi va uni amalga oshirish mexanizmlarini ifodalaydi [14].

Ona va bola salomatligini muhofaza qilishda mahalla instituti, muhim rol o'ynaydi. Ona va bola salomatligini muhofazalash masalasiga mahalla yetilgining mahalla raisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi, ijtimoiy xodim, profilaktika inspektori birgalikda va har biri o'z yo'nalishi doirasida yondashadi. Onani e'zozlash uning salomatligi to'g'risida qayg'urish, bola izzat qilish va turli ehtimolli xavflar himoyalash hamda shu asnodda farzandlarni hayotda o'z o'rni

bo'lishiga jiddiy e'tibor qaratish o'z bek xalqining azaliy qadriyatlariga bo'lib kelgan. Masalan, Amir Temurning farzand tarbiyasiga bo'lgan e'tibori, Mirzo Ulug'bekning onalarga bo'lgan mehrli munosabati, Alisher Navoiyning ota-onani oy va quyoshga farzandlarni esa yulduzlarga qiyoslab e'zozlaganini keltirib o'tish mumkin [15].

Xulosa va takliflar. Mamlakatimizda ona va bola salomatligi masalalariga Mustaqillik erishilgan dastlabki yillarda boshlandi hamda huquqiy jihatdan e'tibor davri boshlandi. Ta'kidlash joizki, bugungi kunda onalik va bolalikni muhofaza qilish borasida misli ko'rilmagan ishlar boshlandi. Bu faoliyatni amalga oshirish mexanizmlari ishlab chiqildi. Ammo ushbu mexanizmlardan foydalanish va amalga oshirishda aholining huquqiy, tibbiy savodxonlik masalalarida ma'lum bir muammolar ham mavjudki, ushbu masalaga ijtimoiy jihatdan yondashish uzoq kelajakdagi istiqbolini prognozlash sotsiologik nuqtai nazardan kompleks tarzda tadqiq etilmagani ham bizni mazkur mavzuni tizimli ravishda ilmiy jihatdan tadqiq etishga undadi.

Xullas, ona va bola salomatligini muhofazalash masalasi mamlakatimizda nafaqat etatik, ya'ni davlat tomonidan amalga oshiriladigan ish, balki, jamiyat tomonidan ham jiddiy shug'ullaniladigan ijtimoiy jarayon sifatida talqin etish mumkin. Zero, onalar va bolalar salomatligi bir tomondan milliy qadriyat bo'lsa, ikkinchi tomondan millatning iqboli, uning yaqin, o'rta va uzoq istiqboldagi ijtimoiy, iqtisodiy, intellektual va ma'naviy taqdirini ham belgilab berishga qodir fenomenidir. Shu boisdan ham mazkur jarayonni tizimli tadqiq etish, uning nazariy asoslarni mustahkamlash, tuzilmalari mazmunidagi o'zgarishlar holati, unga keluvchi xavflarni bartaraf etishga doir yondashuvlar, nazariyalar, metodlarni takomillashtirish va metodologik ahamiyatga ega bo'lgan ilmiy bazani yanada kengaytirish borasidagi faoliyatni strategik maqsadlar sifatidagi ahamiyati dolzarb bo'lib qolaveradi.

ADABIYOTLAR

1. Abu Nasr Forobiy, Fozil odamlar shahri. Toshkent, O'zbekiston: Yangi Asr Avlodi, 2018, p. 320.
2. Abu Rayhon Beruniy, Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar, Tanlangan asarlar, vol. 1. Toshkent, O'zbekiston: Fan, 1968, p. 486.
3. Abu Rayhon Beruniy, Hindiston, Tanlangan asarlar, vol. 2. Toshkent, O'zbekiston: Fan, 1965, p. 497.
4. Ibn Sino, Izbrannye filosofskie proizvedeniya. Moscow, Russia: Nauka, 1980, p. 200.
5. Ibn Xaldun, Kitob ul-ibar (Ibratli misollar kitobi), 1370.
6. I. Mo'minov, Amir Temurning O'rta Osiyo hayotida tutgan o'rni va roli. Toshkent, O'zbekiston: Fan, 1993.
7. Ibn Arabshoh, Amir Temur tarixi, vol. 2. Toshkent, O'zbekiston: Mehnat, 1992.
8. Fitrat A., Oila yoki oila boshqarish tartiblari. Toshkent, O'zbekiston: Ma'naviyat, 2000.
9. Fitrat A., Oyina. Toshkent, O'zbekiston: Akademiya, 2001, p. 4.
10. Alimova D., "Oila poydevori haqida risola (asarning ikkinchi nashriga kirish so'zi)," in A. Fitrat, Oila yoki oilani boshqarish tartiblari. Toshkent, O'zbekiston: Ma'naviyat, 2000, p. 4.
11. A. Avloniy, Tanlangan asarlar: Pandlar, ibratlar, hikoyalar, nabiylar hayoti, dramalar, maqolalar, sayohat xotiralari, vol. 2. Toshkent, O'zbekiston: Ma'naviyat, 2004, p. 96.
12. A. Fitrat, Tanlangan asarlar. H. Boltaboyev, Ed. Toshkent, O'zbekiston: Ma'naviyat, 2009, p. 317.
13. M. Behbudiy, Tanlangan asarlar. B. Qosimov, Comp., 2nd ed. Toshkent, O'zbekiston: Ma'naviyat, 1999, p. 280.
14. Sh. Mirziyoyev, "Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasidagi nutqi," Jan. 19, 2018. [Online]. Available: <https://www.xabar.uz/siyosat/prezident-oila-kichik-vatan>
15. "World Population," [Online]. Available: <https://www.worldometers.info/world-population>